



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

**“ZAMONAVIY
ADABIYOTSHUNOSLIK
VA
TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB
MUAMMOLARI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY ANJUMAN**

2026-YIL 27-FEVRAL





IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”
MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

QO'MITA A'ZOLARI

- Karimov R.G'.** - *Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti rektori, professor, (PhD)*
- Yakubbayev M.M.** - *Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Ilmiy ishlar va Innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, DSc*
- Tursunov A.H.** - *Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Nemis va fransuz tillari kafedrasida mudiri, professori, DSc*
- Saydaliyev S.** - *Namangan davlat universiteti Nemis va fransuz tillari kafedrasida professori, p.f.n*
- Sodiqov Z. Y.** - *Namangan davlat universiteti professor, DSc.*
- Dadaboyev O.O.** - *Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti professori, DSc*
- Tursunov H.B.** - *Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti, Nemis va fransuz tillari kafedrasida dotsenti, (PhD)*

TASHKILY QO'MITA A'ZOLARI

- Tursunov A.H.** - *Rais, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Nemis va fransuz tillari kafedrasida professori, DSc*
- Tursunov H.B.** - *Rais o`rinbosari, Namangan davlat chet tillar instituti, Nemis va fransuz tillari kafedrasida dotsenti*
- Yakubbayev M.M.** - *A'zo, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti professori, DSc*
- Dadaboyev O.O.** - *A'zo, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti professori, DSc*
- Madolimov H.Sh.** - *A'zo, Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti katta o`qituvchisi*



**SAID AHMAD “ALLA” HIKOYASIDA PERSONAJLAR NUTQI VA
UNING TURKCHA TARJIMADA QAYTA YARATILISHI**

Jurakulov Kuvonchbek Naim o‘g‘li
Tel: +998939946461; Email:
TDSHU stajyor-o‘qituvchisi,
juraqulovquvonchbekg@mail.com
Toshkent, O‘zbekiston.

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbekiston Qahramoni atoqli adib Said Ahmadning o‘ziga xos uslubi va uning badiiy tarjimadagi talqiniga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida yozuvchining “Alla” hikoyasi tarjimasi misolida lisoniy tejamkorlik, personajlar nutqi va badiiy dialoglarning turk tiliga o‘girilish mahorati qiyosiy tahlilga tortilgan. Hikoyada mavjud bo‘lgan qahramonlar nutqi o‘rganilib, unda yashirin ma’nolar aniqlangan va tarjimada bu ma’nolarning qay darajada ko‘chirilganini tahlil qilingan. Tarjima jarayonida aslyatda qisqa gapni tarjimada kengaytirib tarjima qilingan gaplar aniqlab chiqilib, ulardagi ma’nolarning qay darajada saqlanganligi tahlil qilingan. Aslyatda mavjud bo‘lmagan tushunchalar aniqlanib, bu tushunchalar aslyatdagi ma’noga tasir qilganmi, yo‘qmi o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlari: Said Ahmad, individual uslub, badiiy tarjima, lisoniy tejamkorlik, personaj nutqi, eksplikatsiya, adekvatlik, turk tili.

Аннотация. Данная статья посвящена индивидуальному стилю Героя Узбекистана, выдающегося писателя Саида Ахмада и его интерпретации в художественном переводе. В ходе исследования на примере перевода рассказа «Алля» («Колыбельная») проведен сравнительный анализ лингвистической экономии, речи персонажей и мастерства перевода художественных диалогов на турецкий язык. Изучена речь героев рассказа, выявлены подтекстовые значения и проанализирована степень их передачи в переводе. В процессе исследования были определены случаи расширения кратких предложений оригинала в языке перевода и дана оценка сохранению их смысловой нагрузки. Также выявлены понятия, отсутствующие в оригинале, и изучено их влияние на исходный смысл текста.

Ключевые слова: Саид Ахмад, индивидуальный стиль, художественный перевод, лингвистическая экономия, речь персонажа, экспликация, адекватность, турецкий язык.

Abstract. This article is dedicated to the unique style of the prominent writer and Hero of Uzbekistan, Said Ahmad, and its interpretation in literary translation. Through the analysis of the translation of the short story "Alla" (The Lullaby), the research provides a comparative study of linguistic economy, character speech, and the proficiency in translating literary dialogues into Turkish. The characters' speech in the story is examined, subtextual meanings are identified, and the extent to which these meanings are conveyed in the translation is analyzed. The study identifies



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

instances where the translator expanded the concise sentences of the original text and evaluates the preservation of the initial meaning. Furthermore, concepts introduced in the translation that were not present in the source text are examined to determine their impact on the original context.

Keywords: Said Ahmad, individual style, literary translation, linguistic economy, character speech, explication, adequacy, Turkish language.

Kirish. “Uslub arabcha: usul, tartib, yo‘sin, shakl – har bir ijodkorning yozish usuli, bayon tarzi, tasvir manerasi. Uslub keng va tor ma‘no doirasiga ega. Tor ma‘noda uslub umuman tasvirlash, bayon etish, so‘zlash usuli. Keng ma‘noda esa biror-bir ijodkorning (A. Qodiriy, A. Qahhor), asarning (“O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”), yozuvchilar guruhining (jadidlar, ma‘rifatparvarlar), adabiyotning (Sharq va G‘arb, o‘zbek, rus), davrning (XV asr, XIX asr), oqimning (romantizm, realism) uslubi va hokazo”. [1]

Til va adabiyotda uslub odamning o‘z tuyg‘u, fikr va hayajonlarini tilga olish shakli, tildan foydalanish shaklidir. Nu jihatdan stilistika sohasining o‘rganish sohalari yozuvchining foydalangan grammatika va sentaksis qoidalarining asoslarini o‘rganadi. Uslubni o‘rganish grammatika, notqlik va adabiy tanqidning ma‘lumotlariga suyangan holda yozuvchining so‘zlarni mavzuga mos shaklda tanlash va foydalanish tarzi, tartib va jumalarni tuzulishi shakli, husni-tahlili kabi so‘z san‘ati foydalanganligini ko‘rsatib beradi. Uslub bundan tashqari yozuvchining tili bilan ishlatgan tilning qoidalari orasidagi farqlarni va bu farqlarning asarning mavzusi va maqsadi jihatidan o‘z joyida bo‘lishi deganidir. Shunday qilib uslub texnik ham estetik butunlikni talab qiladi. Bir yozuvchi yoki adibning his-tuyg‘u va fikrlarini ifoda qilar ekan til birliklardan foydalanish shakli uning xarakterini va axloqi bilan yaqindan aloqador hisoblanadi. [2]

Umar Faruk Huyugo‘zal “Eleştiri terimler sözlülğü” asarida uslubning tor va keng ma‘nolarda ishlatilgani haqida fikr bildirgan:

Umumiy ma‘nodagi uslubda bir janr, davr, oqim yoki mintaqada tilning o‘ziga xos bir shaklda ishlatilish nazarda turiladi. She‘r uslubi, g‘azal uslubi, romantik uslub, sarvat-i funun uslubi, ajam uslubi, gazeta uslubi kabilar uslublar uslubning keng ma‘nosiga misollar bo‘ladi. Tor ma‘nodagi uslub esa bir yozuvchining asarining uslubi yoki asarda ishlatilgan tilning uslubi deganidir. Alisher Navoiyning, Fuzuliyning, Nefining, Nedimning, Halit Ziya Ushakligilning yoki Ahmet Hamdi Tampinarning uslubi” kabi uslublar faqatgina bir yozuvchiga xos bo‘lgan boshqa yozuvchidan farqli tildan foydalanish ma‘nosidadir. Tor ma‘nodagi uslub, ya‘ni bir yozuvchining uslubi yoki foydalangan ifoda usullari asosan nazarda tutilgan narsalar, she‘r va nasrda so‘z tanlash, jumla va gap qurilish shakllari, foydalanilgan ritm qoliblari, so‘z san‘ati, sarlavha tanlash vas hu kabi yo‘llardir. Bularning barchasi o‘ziga xos uslubni tashkil qiladi. [3]

Adabiyotshunoslik terminologiyasida “uslub” tushunchasi o‘zining qamrovi va mazmuniy mundarijasiga ko‘ra, qat‘iy ilmiy tizimlashgan holda tor va keng ma‘nolarda tasnif etiladi. Keng ma‘nodagi uslub ijodkor badiiy tafakkurining o‘ziga



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

xosligini belgilovchi g‘oyaviy-estetik hamda lisoniy-tasviriy xususiyatlarning dialektik birligi bo‘lib, u yozuvchining dunyoqarashi, asarlarining asosiy leytmotivini tashkil etuvchi konsepsiyalar, syujet qurilishi, xarakterlar tizimi hamda badiiy tasvir vositalarining yaxlit majmuini qamrab oluvchi fundamental estetik kategoriya hisoblanadi. Tor ma‘nodagi uslub esa bevosita ifoda usuli (tarzi bayon) sifatida tavsiflanib, unda ijodkorning til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati, individual nutq qurilishi hamda fikrni badiiy qoliplash mahorati nazarda tutiladi. Xulosa qilib aytganda, keng ma‘nodagi uslub ijodkor shaxsiyatining badiiy asardagi to‘laqonli in‘ikosi bo‘lsa, tor ma‘nodagi uslub uning shakliy-lisoniy ifoda texnikasini anglatadi.

Badiiy asarning g‘oyaviy-estetik mundarijasini belgilovchi individual uslub tasodifiy hodisa emas, balki ijodkorning dunyoqarashi, hayotiy tajribasi va intellektual salohiyatining mahsulidir. Ijodkorning shaxsiy qarashlari, ijtimoiy kelib chiqishi va o‘tmishdagi lisoniy muhiti uning o‘ziga xos yozuv uslubi shakllanishida belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Uslub tushunchasi tilning umummilliy imkoniyatlariga nisbatan individual-xususiy xarakterga ega. Agar til barcha uchun umumiy bo‘lgan lisoniy qurilish materiali bo‘lsa, uslub yozuvchining ushbu materialdan foydalanishdagi o‘ziga xos mahorati va tanlovidir. Ijodkorning qalamidan chiquvchi har bir qoralama uning subyektiv fikrlari, ichki kechinmalari va konseptual tushunchalarining lisoniy in‘ikosi hisoblanadi. O‘y-fikrlarini qog‘ozga tushirish jarayonida yozuvchi keng qamrovli voqelikni yoki murakkab ijtimoiy hodisani o‘zining individual uslubiy filtri orqali o‘tkazadi. Natijada, asarda voqealar bayoni shunchaki ma‘lumot berish emas, balki muallifning individual tili va ravon ifoda shakli orqali badiiy estetik qimmatga ega bo‘lgan hodisaga aylanadi. “Individual uslub deganda biror avtorning muayyan davrda yaratgan asarlarida doim uchrab turadigan yoki uning butun ijodiga xos asosiy uslubiy unsurlar majmuasi tushuniladi. Shuningdek, ijodiy faoliyatga munosabatidan qat’i nazar, biron shaxsning og‘zaki yoki yozma nutqda muntazam ishlatiladigan so‘z va iboralari ham individual uslubni keltirib chiqaradi”[4]

Uslub sentitikadir: parchalarini bir-biriga bog‘lash uchun bir ilmoq izlagan san’atkor bir vaqtning o‘zida ikki va undan ortiq unurni, ikki va undan ortiq dunyoqarashni qalamga olib ularni birlashtiradi va qiyoslaydi. Bir tomondan ilmoq topishga harakat qilar ekan boshqa bir tomondan beradigan g‘oyani boyitgan bo‘ladi yoki ikki gap bilan ifoda qiladigan gapini bir jumla bilan ifodalaydi. Eski tarixchilarning ishlatgan ma‘no jihatidan xom jumladan, buyuk bir sentizin mahsuli bo‘lgan ma‘no jihatdan boy jumlalarga qaytishda ham buyuk falsafiy ma‘no yashiringan. Chunki eng tabiiy bo‘lgan uslub hodisalarning navbatiga ko‘ra oddiy va murakkab jumladan foydalaniladi. Juda murakkab bir vaziyatni ifodalar ekan chiroyli va ravon ifoda usuli bilan ko‘rsatib bera olgan uslub eng mukammal uslub hisoblanadi.[5]

“Muallif uslubi unsurlari – bu ikki xil bo‘lib, birinchisiga tarjima matniga o‘zgarishsiz ko‘chib o‘tuvchi unsurlar: asarning kompozision qurilishi, syujet



IS'HOQQON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

yoʻnalishi, tabiat tasviri, portret yaratish, xarakter yoki tip yaratish usuli, qahramonlarni nomlash, tasvir vositalariga boylik darajasi va boshqalar; ikkinchisiga tarjimada tarjimon mahoratiga bogʻliq ravishda oʻzgarishi mumkin boʻlgan unsurlar: asar jumllarining uzun-qisqaligi, ulardagi soʻz tartibi, tarjimonning soʻzlarni tanlashdagi koʻp maʼnolilik va taʼsirchanlik darajasiga, tarjima nazariyasining baʼzi prinsiplariga munosabati kabilar kiradi. Oʻzi oʻgirayotgan matn doirasida ish koʻrganidan tarjimonning huquqlari chegaralangan uning asar syujetiga biror-bir oʻzgartirish kiritishga, muallif fikrini oʻzgartirishga haqqi yoʻq, lekin aslyatni tarjimada jaranglatib chiqarish uchun til sohasida oʻzining bor mahorat va tajribasini ishga solishi mumkin”. [6]

Muallif uslubiga nimalar kirishini aniqlab olish kerak, chunki muallif uslubini toʻlaqonli tushunib yetmasdan asarni tarjima qilishda muallif uslubining oʻziga xosliligi yoʻqolishi va shu bilan birga aslyatdagi maʼno va badiiylik yoʻqolishi mumkin. Muallif uslubining unsurlari sifatida muallifning tili, tildan qanday foydalanishi bilib olish juda muhim hisoblanadi. Shunday yozuvchilar borki, ular asarlarida yozgan soʻzlar faqatgina shu asarda ishlatilgan boshqa biror joyda uchratish mumkin emas. Yozuvchi soʻz oʻyinlaridan foydalanishi ham mumkin. Muallif uslubini tashkil qiladigan unsurlardan yana biri bu personajlar nutqi hisoblanadi. “Personaj nutqining muallif uslubining ajralmas qismi boʻlishi bilan birga tarjima jarayonida ham muhim ahamiyatga egadir. Personajlar nutqi tarjimasi badiiy asar qahramonlarining oʻziga xos gapirish usulini tarjimada qayta yaratish. Personaj nutqi har bir qahramonning yoshi, jamiyatdagi mavqei, kasb-kori, savodxonlik darajasiga bogʻliq ravishda shakllanadi. Unda jonli tilga, shevaga xos unsurlar koʻp boʻladi, adabiy tildan farqlanib, baʼzi soʻzlarni buzib talaffuz qilish hollari uchraydi. Asl nusxada oʻz aksini topgan bu soʻzlashuv uslubi tarjimada ham imkon qadar oʻz aksini topishi kerak. Yaʼni tarjimada ham har bir obraz va personaj “oʻz tili”da gapirishi kerak”. [7]

Said Ahmadning “Alla” hikoyasi tarjimasida muallif uslubining qay darajada saqlab qolingani koʻrib chiqamiz.

Maqsad va vazifalar: Oʻzbek adabiyotining yirik namoyandasi Said Ahmad ijodiga xos boʻlgan individual uslub, xususan, lisoniy tejamkorlik (lakonizm) va personajlar nutqidagi jonli til xususiyatlarining turk tili muhitida qayta yaratilish darajasini aniqlash hamda badiiy tarjimada uslubiy adekvatlik muammolarini ilmiy tahlil qilishdan iborat. Ishning vazifalari quyidagilar:

- Adibning “Alla” asari misolida personajlar nutqidagi yashirin maʼnolarning tarjima matnida aks etish xususiyatlarini qiyosiy oʻrganish;
- Tarjimada qoʻllanilgan eksplikatsiya va mantiqiy kengaytirish usullarining muallif uslubiga taʼsirini baholash;
- Badiiy matndagi qatʼiy hukm va fojiaiylik ohangining tarjimada neytrallashish sabablarini lingvistik jihatdan asoslash;
- Said Ahmad uslubidagi sirlilik va loʻndalikni tarjima tilida adekvat ifodalash uchun muqobil variantlar ishlab chiqish va tavsiya etish.



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

Usullar: Said Ahmadning “Alla” hikoyasining asli va turk tilidagi tarjimasi qiyoslash va tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Tadqiqot manbasi: Said Ahmadning “Alla” hikoyasining asli va turk tilidagi tarjimasi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti sifatida Said Ahmadning “Alla” hikoyasidagi tarjimada personajlar nutqi o‘g‘irilishi hisoblanadi.

Natija va mulohazalar: O‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Said Ahmad o‘ziga xos, betakror va qalqona uslub yaratgan ijodkor hisoblanadi. Uning o‘ziga xos uslubi haqida gapiradigan bo‘lsak, shu uch jihat bilan ta’riflashimiz mumkin: hayotiylik, yumor va o‘ynoqi til. Asarida juda ko‘p frazeologizmlardan foydalangan. Tilining soddaligi bilan ham ajralib turadi va o‘quvchini murakkab til bilan qiynab qo‘ymaydi. Asarlarining detallarga boyligi va psixologik tasviri bilan ham ajralib turadi. Badiiy asarda personajlar nutqi matnning dinamikasini ta’minlovchi va qahramon harakterini individuallashtiruvchi asosiy tarkibiy qism hisoblanadi. Dialogik nutq orqali yozuvchi personajning ijtimoiy kelib chiqishi, ma’naviy darajasi, ruhiy holati va hatto hududiy mansubligini (shevasini) kitobxonga namoyon etadi. Shu sababli, personajlar nutqini tarjima qilish jarayoni tarjimondan nafaqat lingvistik bilim, balki yuksak filologik mahorat va xalqning jonli tilini chuqur egallashni talab etadi. Jonli so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lgan lisoniy xususiyatlarni muvaffaqiyatli o‘g‘irishda faqatgina lug‘aviy birliklarga tayanib bo‘lmaydi. Chunki so‘zlashuv nutqining ekspressiv-emotsional bo‘yog‘i va kontekstual ma’nolari ko‘pincha akademik lug‘atlarda to‘laqonli aks etmaydi. Tarjimonning mahorati aslyatdagi kichik detallarni bolalar nutqidagi fonetik nuqsonlar bo‘ladimi yoki shevaga xos gap qurilishimi tarjima tilining o‘z ichki imkoniyatlari orqali qayta yarata olishida ko‘rinadi. Badiiy tarjimada so‘zlarning konnotativ ma’nolari (ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdorligi), ko‘chma ma’no va badiiy san’atlarning ko‘pligi jarayonni yanada murakkablashtiradi. Ayniqsa, hududiy dialektlar va ijtimoiy jargonlarning tarjimada aks etishi muammoli masala bo‘lib, bunda shevani sheva bilan emas, balki sintaktik o‘zgarishlar yoki maxsus leksik vositalar orqali kompensatsiya qilish uslubiy jihatdan eng to‘g‘ri yondashuvdir. Quyidagi gaplar misolida tarjimon muallif uslubini qay darajada saqlab qolganini ko‘rib chiqamiz. Asarda pesonajlar nutqi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aslyat: – Shundaymi?! [8]

Tarjimasi: – Yani "Kararim kesin" diyorsun? [9]

Yuqoridagi gap tarjimasiga nazar soladigan bo‘lsak, aslyatda “*Shundaymi?!*” so‘roq undov gap o‘zida kuchli emotsional yukni va kontekstga bog‘liq keng ma’noni ifodalaydi. Bu yozuvchi uslubiga xos bo‘lgan xususiyatlardan biridir. Bu yerda qahramonning hayrati, qarshi tomondan tasdiq kutish yoki kesatq ohangi mujassamlashgan. Lekin tarjimada bu so‘z “– *Yani 'Kararim kesin' diyorsun?*” (*Ya’ni "Qararim qat’iy" deyapsanmi?*) shaklida keng va tushuntiruvchi jumla bilan o‘g‘irilgan. Bu tarjima misoli qahramon nutqida bo‘lmaganda edi, bu xato unchalik bilinmas edi. Bu usul turk kitobxoni uchun voqealar rivojini tushunishni



yengillashtirsa-da, yozuvchi uslubiga putur yetkazish xavfi mavjud. Yuqoridagi tarjima misolida qardosh tillardan tarjima qilishda faqatgina lug'aviy ma'noni emas, balki yozuvchining uslubini saqlab qolish naqadar murakkab vazifa ekanligini ko'rishimiz mumkin. Asl nusxadagi ruhni saqlash uchun turk tilida ham "– Öyle mi?!" yoki "– Demek öyle?!" kabi qisqaroq muqobillardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Asliyat: – Ha

- Birinchi bola. Mumkin emas, umrbod mayib bo'lib qolasan-a! [10]
- **Tarjimasi:** Evet. Ben kararımı verdim.
- İlk çocuğun... Bunu yapamazsın, bütün ömür sakat kalabilirsin, anlıyor musun?! [11]

Said Ahmad asarlarida dialoglar o'ta shiddatli, ortiqcha tavsiflardan xoli va qahramonlar xarakterini ularning nutqi orqali chizib berishi bilan ajralib tuadi. Yozuvchining "Ha", "birinchi bola" kabi qisqa va ixcham gaplari shunchaki tasdiq emas, balki qahramonning qat'iy qarori ortidagi ma'noviy yukni ifodalaydi. Tarjimada bunday ixcham gaplar aniqlashtirish usuli orqali kengaytirib tarjima qilingan. "– Ha" so'zi turkcha matnda "Evet. Ben kararımı verdim" (*Ha. Men karar qildim*) shaklida berilib, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan yashirin ma'no yuzaga chiqarilgan. Tarjimon bu usul orqali o'quvchining asarni yanada yaxshiroq tushinishiga yordam bergan. "Birinchi bola. Mumkin emas, umrbod mayib bo'lib qolasan-a!" jumlasida "İlk çocuğun... Bunu yapamazsın, bütün ömür sakat kalabilirsin, anlıyor musun?!" shaklida tarjima qilingan. O'zbekcha matndagi "umrbod mayib bo'lib qolasan-a!" jumlasida tashiydigan xavotir va ogohlantirish ohangi turk tilida "bütün ömür sakat kalabilirsin, anlıyor musun?!" shaklida, ya'ni "anlıyor musun?!" (*tushunyapsanmi?!*) ritorik so'rog'i orqali qayta tiklangan. Bu uslubiy topilma qahramonning hayajonli nutqi va vaziyatning jiddiyligini jonli saqlab qolishga xizmat qilgan. Shuningdek, asliyatdagi "Birinchi bola" iborasi tarjimada "İlk çocuğun..." (*Senin birinchi bolang...*) shaklida egalik qo'shimchasi bilan berilishi orqali gapning mantiqiy bog'liqligi yanada kuchaytirilgan. Mazkur tarjima haqida xulosa qilib muallif uslubiga xos bo'lgan "qisqa gap kata ma'no" tushunchasi biroz kengaytirish yo'li bilan tarjima qilingan. Tarjimada asliyat ruhi saqlab qolingani deyishimiz mumming, lekin yozuvchi uslubini biroz o'zgarish bilan tarjima qilingan.

Asliyat: *Vrachlar Ozodaga endi tug'maysan, deyishdi.* [12]

Tarjimasi: *Doktorlar kürtaj yapılırsa çocuğu olmayacağını söyleyerek Azade'yi uyarmışlardı.* [13]

Said ahmadning uslubiga xos bo'lgan o'ta lo'ndalik "Vrachlar Ozodaga endi tug'maysan, deyishdi" jumlasida orqali bizga ayon bo'ladi. Yozuvchi bu yerda nima sababdan tug'masligini, ya'ni voqealarning tavsilotini ochiq bayon qilmaydi. Shunchaki qisqa va lo'nda hukm orqali vaziyatning fojaviyligini oshiradi. O'quvchi kontekstdan voqeaning sababini o'zi anglab olishi kerak bo'ladi. Tarjimada esa bu gap mazmunan kengayganini va mantiqiy aniqlashtirilganini ko'rishimiz mumkin.



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

“Doktorlar kürtaj yapılsa çocuğu olmayacağını söyleyerek Azade'yi uyarmışlardı” (Doktorlar abort qilinsa bolasi bo'lmasligini aytib, Ozodani ogohlantirgan edilar) shaklida tarjima qilish orqali asliyatda mavjud bo'lmagan “kürtaj” (abort) tushunchasi tarjima matniga kiritilgan. Tarjimon asarning umumiy mazmunida kelib chiqib Ozodaning nima sababdan tug'masligini kitobxonga tushuntirib bergan. Bu asar mazmunini tushunishga yordam bersa-da, muallifning sirlilik va o'quvchi bilan pinhona muloqot qilish uslubiga zid hisoblanadi. Tarjima matnida neytrallash ham kuztiladi asaliyatdagi “tug'maysan” qat'iy hukm tarjimada ogohlantirish va shartli gap orqali ifodalangan. Bu esa matndagi fojaviylik ohangini yumshatgan. Gap shunchaki ma'lumot berish uchun gapirilgan gapga o'xshab qolgan. Bu usul tarjimashunoslikda mazmuniy adekvatlikni ta'minlasa-da, muallifning individual uslubiy qirralarini biroz xiralashtiradi. “Doktorlar Azade'ye: "Artık doğuramazsın," dediler.” Shaklida tarjima qilinganda maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shunday deyishimiz mumkinki, Said Ahmadning o'ziga xos, betakror uslubini tarjimada adekvat saqlab qolish tarjimon oldidagi eng murakkab vazifa hisoblanadi. Hikoya tilining osonligi, lo'ndaligi va o'quvchining zeriktirmasligi bilan boshqa hikoyalardan ajralib tuadi. Bu hikoyani tarjima qilishda ham bir qancha qiyinchiliklarga duch kelish tabiiy hol hisoblanadi. Shunga qaramay tarjimon bu hikoyani asliga muvofiq tarjima qila olgan. Albatta, ba'zi o'rinlarda kengaytirish, tushuntirish usullaridan foydalangan bo'lsa-da, tarjimani asliga muvofiq tarjima qilingan deyish noo'rin hisoblanadi. Biz tahlilimiz davomida personajlar nutqi tarjimasining naqadar qiyin bir jarayon ekanligini ko'rsatish uchun tarjimada biroz muammoli bo'lgan misollarni to'pladik. Hikoyaning butun qismini tarjimasini juda mohirona tarjima qilingan. Tahlil davomida guvohi bo'lganimizdek qahramonning nutqi bu juda ham ma'noga boy unsur hisoblanadi, uni tarjimada iloji boricha asliga muvofiq qoldirish kerak bo'ladi. Kengaytirib tarjima qilish umuman olib qaralganda ba'zan juda yaxshi usul, ba'zan esa juda xavfli bo'lishi mumkin. Bu hikoya tarjimasini ba'zi kamchiliklarini inobatga olmaganda asliga muvofiq tarjima qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – B. 128.
2. Durmuş İ. Üslup. cilt II. – İstanbul: TDV İslam ansiklopedisi, 2012. – S. 383.
3. Huyugüzel Ö.F. Eleştiri terimler sözlüğü. – İstanbul: Dergah yayınlari, 2018. – S. 518-519.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 66.
5. Stevenson R.L. Doku, söz-biçim uyumu, roman teorisi. – Ankara: Akçağ yayınlari, 2017. – S. 198.
6. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2014. – B. 45.



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

7. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2014. – B. 51-52.
8. Said Ahmad. Qadrdon dalalar. – Toshkent, 2025. – B. 179.
9. Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 70.
10. Said Ahmad. Qadrdon dalalar. – Toshkent, 2025. – B. 179.
11. Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 70.
12. Said Ahmad. Qadrdon dalalar. – Toshkent, 2025. – B. 180.
13. Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 71.

METAFORIK BIRLIKLARNING TARJIMASIDA YUZAGA
KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Mahfuza Nishonboyeva,
FarDU doktoranti,
Farg‘ona, O‘zbekiston

ANNOTATSIYA

Mazkur tezis metaforik birliklarning tarjima jarayonida yuz beradigan semantik transformatsiyalarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida metaforaning bir til tizimidan boshqa til tizimiga ko‘chirilishida uning ma’no tuzilmasi qanday o‘zgarishi, xususan, obrazli komponentning saqlanishi yoki neytrallashuvi masalalari tahlil qilinadi. Metafora tarjimasiga kognitiv va madaniy yondashuv asosida yondashilib, semantik siljishlarning asosiy sabablari aniqlanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridan olingan materiallar asosida olib borilgan tahlil metafora tarjimasida ekvivalentlik masalasining murakkabligini ochib beradi hamda tarjimon tanlovining semantik oqibatlarini ko‘rsatib beradi.

Kalit so‘zlar: metaforik birlik, semantik transformatsiya, tarjima ekvivalentligi, kognitiv yondashuv, madaniy omil, demetaforizatsiya, obrazlilik, semantik siljish, tarjimon strategiyasi

Аннотация

Данный тезис посвящён исследованию семантических трансформаций метафорических единиц в процессе перевода. В работе анализируется изменение смысловой структуры метафоры при её переносе из одной языковой системы в другую, в частности сохранение или нейтрализация образного компонента. Исследование основано на когнитивном и культурологическом подходах, что позволяет выявить основные причины семантических сдвигов в переводе метафор. Материалом исследования послужили примеры из английского и узбекского языков, на основе которых раскрывается сложность проблемы переводческой эквивалентности и роль переводческой стратегии в формировании смысловых изменений.



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

MUNDARIJA:

I-SHO'BA: ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK		
1	THE LANGUAGE SITUATION AS A COMPONENT OF THE SOCIO-COMMUNICATIVE SYSTEM IN SOCIO-LINGUISTICS <i>Karimov R</i>	3
2	THE POETICS OF ARTISTIC FICTION IN THE HISTORICAL NOVELS OF THE SOUTHERN RENAISSANCE <i>Umrzaqov I</i>	10
3	BAYRON IJODIDA ELEGIK FRAZELOGIYA <i>Toshpulatov B</i>	15
4	XX ASR INGLIZ VA O'ZBEK HIKOYALARIDA QAHRAMON OBRAZINING POETIK O'XSHASHLIGI VA O'ZIGA XOSLIGI <i>Sheraliyeva D</i>	19
5	HAMD JANRI GENEZISIDA TASAVVUF TA'LIMOTINING O'RNI <i>Karimova N</i>	23
6	THE ART OF THE STORY: HOW ENGLISH AND UZBEK FICTION EXPRESS THE HUMAN EXPERIENCE., <i>Akramova M</i>	27
7	ABDURAZZOQ GURNA IJODIDA MUALLIF USLUBINING LINGVOPOETIK VA ESTETIK XUSUSIYATLARI., <i>Saydamatova D</i>	30
8	NURALI QOBULNING “SARIQ QIZLAR” HIKOYASIDA METAFORA ORQALI BADIY MA'NO <i>Talipova A</i>	35
9	EDWARD SAIDNING “ORIENTALIZM” ASARI XUSUSIDA., <i>Tursunov A</i>	37
10	AMERIKA GOTIK ADABIYOTINING SHAKLLANISHI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI <i>Abdusattarova Sh</i>	42
11	INGLIZ BADIY DISKURSIDA KONSEPTUAL STRUKTURALAR DINAMIKASI VA ULARNING TARIXIY TRANSFORMATSIYASI <i>Azizov S</i>	47



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

12	DANTE ALIGERI “ИЛОНИЙ КОМЕДИЯ” VA ABDULLA ORIPOV “JANNATGA YO‘L” ASARLARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI <i>Niyozova M</i>	55
13	INGLIZ TILIDAGI DO‘STLIK MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING KONSEPTUAL METAFORIK TAHLILI <i>Sotimboyeva Sh</i>	58
14	ПРОСТРАНСТВО «ДРУГИХ» В ТРАВЕЛОГЕ ДЖОНА СТЕЙНБЕКА «РУССКИЙ ДНЕВНИК» <i>Дворяшина В.С</i>	61
15	ERTAK MATNLARIDA RITORIK VA STILISTIK VOSITALAR <i>Madolimov X., Lapasov I</i>	64
16	XOTIRA JANRI VA AYOL OBRAZINING ADABIY TALQINI <i>Abdullayeva F</i>	75
17	LINGVOPOETIKA TUSHUNCHASI VA UNING ADABIYOTSHUNOSLIKDAGI O‘RNI <i>Abdullayeva F</i>	79
18	ZAMONAVIY AMERIKA SHE‘RIYATIDA KLASSIK MIFOLOGIYANING POETIK TRANSFORMATSIYASI <i>F.I.Nuriddinova</i>	83
19	ZARURIYAT VA TASODIFIYLIK: GOTIK ROMANDA QO‘RQUV MUHITINI YARATISH OMILLARI SIFATIDA <i>Karimova G</i>	86
20	GABRIEL GARSIA MARKES ROMANLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI <i>Akram Nematullayev</i>	89
21	A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE CATEGORIES OF EMOTIVITY, EXPRESSIVITY, AND EMOTIONALITY <i>Hasanboyev I</i>	92
22	ILMIY FANTASTIADA TOTALITAR JAMIYAT MODELI (FAHRENHEIT 451 ASOSIDA) <i>Imomaliyeva M</i>	97
23	O‘ZBEK ADABIYOTIDA HIKOYA JANRI GENEZISI <i>Abduvoxidov A</i>	101
24	J.R.R.TOLKINNING “BEOWULF: THE MONSTERS AND THE CRITICS” TANQIDIY MAQOLASI XUSUSIDA <i>Ibragimov J</i>	105



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

25	PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNI LINGVOMADANIY TAHLIL QILISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Aripova M</i>	108
26	WALTER SCOTTNING "IVANHOE" ASARIDA ERKAK VA AYOL OBRAZLARI TIPOLOGIYASI <i>To'xtabayeva M</i>	112
27	THE EXPRESSION OF MYSTICAL CONCEPTS IN ENGLISH CLASSICAL LITERATURE AND LANGUAGE <i>Mannonova F</i>	117
28	JEYN OSTIN VA XIX ASR INGLIZ REALIZMI: AN'ANA VA YANGILIK <i>Samijonova M</i>	120
29	ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDA QIROL ARTUR TRANSFORMATSIYASI. <i>Uzoqova N</i>	124
30	ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ В ТВОРЧЕСТВЕ АНГЛИЙСКИХ ПИСАТЕЛЬНИЦ XIX ВЕКА: ОСОБЕННОСТИ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ <i>Рашидова Ф</i>	129
31	SO‘Z O‘YINLARINING BADIY ADABIYOTDA UMUMIY XUSUSIYATLARI <i>Qodirova M</i>	135
32	O‘TKIR HOSHIMOVNING “IKKI ESHIK ORASI” ROMANIDA STILISTIK VOSITALAR VA BADIY-TASVIRIY TAHLIL <i>Raxmonova Z.A. Botirjonova D.B.</i>	139
33	INGLIZ ADABIYOTIDA AFSONAVIY QIROL ARTUR OBRAZINING EVOLYUTSIYASI (XII–XX ASRLAR) <i>Nasrullayeva U</i>	143
34	“FANTASTIK” VA “FANTASTIK MANTIQ” TUSHUNCHALARINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI <i>Tursunova M</i>	146
35	U.S. MAUGHAM, G.B. SHAW VA J.B. PRIESTLEY PYESALARINING QIYOSIY TAHLILI <i>Karimova Sh</i>	154
36	BIR-BIRIGA O‘XSHASH SHE’RIY SAN’ATLAR: IMRAD MODELIDA YONDASHUV <i>Abduraxmanova O</i>	160



IS'HOQQON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

37	O‘ZBEK TILIDA METAFORALARNING KOGNITIV TAHLILI <i>Jaloliddinova N</i>	165
38	JON STEYNBEK ROMANLARIDA EKZISTENSIAL IZTIROB VA YASHASHGA ISHONCH MOTIVI <i>Rahimov R</i>	170
39	RAMZ VA ALLEGORIYALARNING JANRIY USLUBIY XUSUSIYATLARI <i>Abdullayeva S</i>	174
40	NEMIS SHE‘RIYATIDA AN‘ANAVIY OBRAZLAR TIZIMI VA ULARNING BADIY-PSIXOLOGIK TALQINI (H. HAYNE VA A. DROSTE-HYULSXOF IJODI MISOLIDA) <i>Ma‘diyeva A</i>	177
41	ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ALISHER NAVOIY PORTRETINING SHAKLLANISHI VA TALQIN MASALALARI (ISAJON SULTONNING “ALISHER NAVOIY” ROMANI MISOLIDA) <i>Ibragimov J</i>	182
42	INGLIZ VA O‘ZBEK FOLKLORIDA HAJVIY ERTAKLAR TASNIFINING NAZARIY MUAMMOLARI <i>Ahmadaliyeva M</i>	185
43	ADABIYOTSHUNOSLIKDA KO‘P RAKURSLILIK (KO‘P NUQTAYI NAZARLILIK) TUSHUNCHASI <i>Razzakov B</i>	190
44	MONSIGNOR QUIXOTE ASARIDA ILOHIYOT VA DINIY RAMZIYLIK ТЕОЛОГИЯ И РЕЛИГИОЗНАЯ СИМВОЛИКА В MONSIGNOR QUIXOTE <i>Komilova M</i>	197
45	XX ASR INGLIZ ADABIYOTIDA "YO'QOTILGAN AVLOD" ADABIY YO'NALISHI ADIBLARI ASARLARI TEMATIKASI VA BADIY O'ZIGA XOSLIGI <i>Tojiboyev D</i>	202
46	THE ARTISTIC FUNCTION OF FANTASTIC ELEMENTS IN THE NOVELS OF NEAL ASHER <i>Umarkulova M</i>	207
47	ЖАНРОВАЯ ИМИТАЦИЯ ВОСТОКА В НЕМЕЦКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ XIX ВЕКА: ГАЗЕЛЬ (ГЁТЕ, РЮККЕРТ) И РУБАИ (ФИЦДЖЕРАЛЬД) <i>Искандарова Н</i>	214



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

48	ЧЕРТЫ ЭПИЧЕСКОГО ПОВЕСТВОВАНИЯ В ПОВЕСТИ В. Г. РАСПУТИНА «ЖИВИ И ПОМНИ» <i>Ходжаев К</i>	219
49	SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA INSON VA TABIAT TASVIRI <i>Qaraqulov A</i>	223
50	PATRIK UAYT ASARLARIDA SIMVOLLAR ORQALI AVSTRALIYA MILLIY O'ZIGA XOSLIGINING IFODALANISHI <i>Axmedova Sh</i>	229
51	SHARQ VA G'ARB DOSTONLARIDA QAHRAMON TIPI <i>Boltaboyeva S</i>	233
52	JEYN OSTIN IJODIDA AYOL OBRAZINING NAZARIY- TARIXIY ASOSLARI <i>Baxriddinova Sh</i>	238
53	XXI ASR BOLALAR FANTASTIKASINING EVOLUTSION PARADIGMALARI <i>Ortiqov R., Xalitova Y</i>	243
II-SHO'BA: ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK		
54	GAPNI BO'LAKLARGA AJRATISH NAZARIYASI TADQIQI: YANGICHA YONDASHUVLAR <i>Sapayeva B</i>	248
55	GENERAL PRINCIPLES ABOUT SYNTACTIC BONDS <i>Sapayeva B., Bekchanova Sh</i>	251
56	PROTOTYPE EFFECTS IN THE CLASSIFICATION OF FORMULAIC LANGUAGE <i>Abdulkhakova D</i>	257
57	ZUM BEGRIFF UND KLASSIFIKATION DER GEWOHNHEITEN <i>Tursunov Z., Shermahamatova G</i>	262
58	THE GENERAL CLASSIFICATION OF CONNECTED SPEECH <i>Abdullajonova M., Madmusayev J</i>	264
59	ZOONIM – LINGVISTIK TERMIN SIFATIDA: TASNIFI VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI <i>Sobitov A</i>	274



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

60	HOZIRGI ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIKNING O‘ZIGA XOS DOLZARB MUAMMOLARI <i>Mamatov R., Rustamova M</i>	279
61	DIPLOMATIK RITORIKA <i>Isayeva G</i>	282
62	ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ НА ЯВЛЕНИЕ СИММЕТРИИ И АСИММЕТРИИ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКЕ <i>Мурзаева Г</i>	288
63	IT TERMINOLOGIYASIDA OMONIMLIK VA METAFORIZATSIYA <i>Orifjon O</i>	293
64	JAHON TILSHUNOSLIKDA ONOMASTIKA SOHASI TARAQQIYOTI <i>Jo‘rayeva Sh</i>	297
65	O‘ZBEK ADABIY TILI VA SHEVALARIDAGI SO‘ZLARNING QIYOSIY TAHLILI <i>To‘ychiyeva M</i>	301
66	WÖRTERBUCHBENUTZUNGSFORSCHUNG <i>Sativoldiyeva M</i>	304
67	INGLIZ TILIDAGI IZOHLI LUG‘ATLARDA ZONIMIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI <i>Xoshimova O., Akramova M., Zohidjanova Sh</i>	308
68	INGLIZ TILI GAP STRUKTURASIDA YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARINING FUNKSIONAL-KOMMUNIKATIV ROLI: KORPUS TILSHUNOSLIGI ASOSIDA TAHLIL <i>Raximova S., Madmusayev J.,</i>	313
69	METAPHORS IN POLITICAL DISCOURSE <i>Xodjayeva G</i>	323
70	METAFORALARNING FUNKSIONAL YUKLAMASI <i>Sotvoldiyeva M</i>	326
71	O‘ZBEK XALQ ALLALARIDA QO‘LLANGAN MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI <i>Sulaymonova Z</i>	330
72	INGLIZ TILIDAGI MOLIYAVIY-IQTISODIY ATAMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI <i>Nasibboyeva M</i>	332



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

73	TILSHUNOSLIKDA QORISHIQ METAFORANING LINGVISTIK OBYEKT SIFATIDAGI O‘RNI <i>Murodjonova L</i>	338
74	GENRE AND PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF CRIMINAL CODE TEXTS IN THE CONTEMPORARY LEGAL DISCOURSE SYSTEM <i>Raxmatova B</i>	342
75	COMPOUND NAMES IN THE UZBEK AND ENGLISH ONOMASTIC SYSTEM STRUCTURE AND CONTENT <i>Matyakubov Kh</i>	345
76	O‘ZBEK TILIDA ERGONIMLAR <i>Salohiddinova M</i>	348
77	ГЕРМАНИЗМЫ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ <i>Рахмонов X</i>	352
78	PUBLICISTIKALÍQ – GAZETA STILINIŃ LINGVOSTILISTIKALÍQ ÓZGESHELIKLERI <i>MÍRZABAEV S</i>	356
79	THE DISTINCTIVE LINGUISTIC NATURE OF ENGLISH ACADEMIC DISCOURSE <i>Larina Kamila Petrovna</i>	360
80	THEORETICAL FOUNDATIONS OF ELLIPSIS AND PARALIPSIS IN LINGUISTICS <i>Qosimova M</i>	364
81	INGLIZ TILIDA NOYADRO TOBE KOMPONENTLARGA ERGASHIB KELUVCHI UYUSHIQ BO‘LAKLAR <i>Matchanov M</i>	367
III-SHO‘BA: KOMPORATIVISTIKA		
82	TARJIMADA MADANIY KONTEKST VA MILLIY IDENTIFIKATORLARNING AHAMIYATI <i>Xolmirzayev B</i>	374
83	THE DISTINCTIVE FEATURES OF ENGLISH AND RUSSIAN LITERARY TRENDS <i>Salimova M., Xoshimova O.</i>	379
84	DAVOMIYLIK FAZASINING TASHQI TURI: QIYOSIY LINGVISTIK TAHLIL (nemis–o‘zbek–tojik tillari asosida) <i>Azimova N</i>	384



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

85	INGLIZ VA O'ZBEK FRAZELOGIYASIDA GENDER MUAMMOSI <i>Muhammadiyeva M</i>	387
86	LINGUOPOETIC FEATURES OF EXPRESSING THE CHARACTER OF THE HERO THROUGH DIALOGUE IN FOLK TALES (COMPARATIVE ANALYSIS) <i>Xusanova N</i>	393
87	LINGUISTIC FEATURES OF COMPARATIVE LINGUISTICS <i>Abdurahmanov M</i>	396
88	CHOG'ISHTIRILAYOTGAN TILLARDA SIMPATIYA VA EMPATIYANING ALLOMORF VA IZOMORF JIHLARI (GENDER ASPEKT) <i>Mavlanova O</i>	399
89	O'ZBEK, TURK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY ETIMOLOGIK TAHLILI <i>Halbekova Nigora</i>	404
90	O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA FRAZELOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDAGI G LYUTONIK PRAMATONIMLAR LINGVOMADANIY TADQIQI <i>Akramova N</i>	409
91	ZOONIMIK FRAZELOGIK BIRLIKLARNI QIYOSIY-LEKSIKOGRAFIK TADQIQ ETISH VA ULAR ASOSIDA IZOHLI LUG'AT TUZISHNING NAZARIY HAMDA, AMALIY ASOSLARI <i>Xoshimova O.</i>	413
92	O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT NOM ORQALI IFODALANUVCHI METONIMIYA <i>Axrrova J</i>	419
93	XX ASR AMERIKA ADABIYOTIDA AMIR TEMUR OBRAZI: HAROLD LAMB TALQINI <i>Ibragimov J</i>	422
94	COMPARATIVE INTERPRETATION OF YOUTH PSYCHOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK REALISTIC NOVELS <i>Maxmudova Sh</i>	425
95	A COMPARATIVE ANALYSIS OF SCHOLARLY RESEARCH ON THE WORKS OF ETHEL LILIAN VOYNICH <i>Khallieva G., Adamova F</i>	429



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

96	BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARIDA ALLUZIYA HODISASI: INGLIZ, RUS VA O'ZBEK FOLKLORI MISOLIDA <i>Yoqubova G</i>	436
97	INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARINI QIYOSIY O'RGANISH <i>Xusanova N</i>	440
98	O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA MILLIY O'ZLIK KONSEPSIYASINING QIYOSIY TAHLILI <i>Mamadaliyev D., Rashidova F</i>	443
99	IJTIMOIIY ONG VA SATIRA — MARK TVEN HAMDA ABDULLA QAHHOR NASRIDA TANQIDIY REALIZM <i>Tojimirzayeva M</i>	448
100	INGLIZ VA O'ZBEK LINGVORANGLI OLAM MANZARASIDA “SARIQ” RANGNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI <i>Xoshimova O</i>	452
101	THE CONTRACT IS THE RELATIONSHIP: TRUST-BUILDING IN UZBEK AND ENGLISH POLITICAL CONTEXTS <i>Ergasheva N</i>	457
102	LOYALTY VA SADOQAT KONSEPTLARI: INGLIZ VA O'ZBEK MADANIY TAFAKKURIDA SEMANTIK HAMDA KOGNITIV TAHLILI <i>Hamrayeva Ch</i>	462
103	THE STUDY OF CONTRASTIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK FORMS OF ADDRESS <i>Sapayeva B., Babadjanova X</i>	465
104	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK SINONIMLAR VA ULARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARINING MUQOYASASI <i>Sapayeva B., Madaminova N</i>	469
105	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA EMOTIV LEKSIK BIRLIKLARNING IJOBIY VA SALBIY HIS-TUYG'ULARNI IFODALASHI <i>Maxmudova Q</i>	474



IV-SHO‘BA: TARJIMASHUNOSLIK		
106	ON PHRASEOLOGICAL UNITS RELATED RELIGION IN “KUTADGU BILIG” AND PROBLEMS OF TRANSLATION <i>Sidiqov Q</i>	477
107	ISSUES OF INTERCULTURAL COMMUNICATION FROM THE PERSPECTIVE OF DIFFERENT DISCIPLINES. <i>A’zamov S</i>	482
108	KLASSIK ADABIYOT NAMUNALARIDA QO‘LLANILGAN LEKSIKANING HOZIRGI DAVRGA NISBATAN TASNIFI <i>Do’smatova A.</i>	485
109	TARIXIY-MILLIY XOS SO‘ZLAR – REALIYALAR TARJIMASI <i>Salayeva L</i>	488
110	BADIIY TARJIMADA PRAGMATIK EKVIVALENTLIK <i>Raxmatova Z.</i>	492
111	TARJIMA JARAYONIDA KOGNITIV KONSEPTLARNING SHAKLLANISHI VA QO‘LLANILISHI <i>Agzamova N</i>	496
112	BADIIY ASARNING TARJIMA MUAMMOLARI <i>Valijanov Sh., Ro`ziboyeva O</i>	504
113	BADIIY SHE‘RIYATDA TABIAT TASVIRLARINI TARJIMA QILISH MUAMMOLARI VA ULARNING RAMZIY MA‘NOSI <i>Fariddinova N</i>	508
114	“BOBURNOMA”NING FRANSUZCHA TARJIMALARIDA TOPONIMIK TRANSFORMATSIYA VA UNING LINGVOKULTURAL XUSUSIYATLARI <i>Mamadjonov V</i>	512
115	METAFORA VA RAMZ TUSHUNCHALARI LINGVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIKDA <i>Mirsadullayev M</i>	520
116	MILLIY KOLORIT VA REALIYALARNING TARJIMADA IFODALANISHI. (“CHAYON YILI” ROMANI VA “KAFANSIZ KO‘MILGANLAR” ROMANLARI MISOLIDA) <i>Yusupova U</i>	524
117	PRAGMATIC LOSS AND COMPENSATION OF STYLISTIC DEVICES IN THE UZBEK TRANSLATION OF “GAME OF THRONES” <i>Ruzmetova M</i>	529



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

118	MUMTOZ MATNLAR TARJIMASI MUAMMOLARI <i>Sapaeva F</i>	535
119	SAVDO TERMINLARINI TARJIMADA STANDARTLASHTIRISH ZARURATI <i>Bozorova S</i>	540
120	SAID AHMAD “ALLA” HIKOYASIDA PERSONAJLAR NUTQI VA UNING TURKCHA TARJIMADA QAYTA YARATILISHI <i>Jurakulov K</i>	543
121	METAFORIK BIRLIKLARNING TARJIMASIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI <i>Nishonboyeva M</i>	550
122	BADIIY MATNDA LEKSIK TRANSFORMATSIYALARNING TURLARI (DORIAN GREYNING PORTRETI MISOLIDA) <i>Abdurazakova X</i>	554
123	FRAZELOGIK BIRIKMALAR TAHLILI; INGLIZ TILIDAGI FRAZELOGIZMLARNING O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR VA YONDASHUVLAR <i>Yo‘ldosheva D</i>	556
124	TARJIMASHUNOSLIK TAFAKKURINING EVOLYUTSIYASI: LINGVISTIK MODELLARDAN MADANIY VA AXLOQIY PARADIGMALARGACHA <i>Abdusamatov M</i>	562
125	INGLIZCHA SPORT TERMINLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING O‘ZIGA XOS JIHLTLARI <i>Sapayeva B</i>	568
126	STRATEGIES FOR TRANSLATING CULTURAL-SPECIFIC, AND QUALITATIVE ITEMS: AN ANALYSIS OF DAVIES’ FRAMEWORK <i>Khayitbaev O</i>	572
127	O‘ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMADA TARIXIY REALIYALARNI IFODALASH USULLARI <i>Kalandarov A</i>	575



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
"ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI"

V-SHO'BA: CHET TILI O'QITISH METODIKASI		
128	O'QUVCHILARNING GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDA TILLARARO INTERFERENSIYANING OLDINI OLIH MUAMMOLARI (FRANSUZ TILI MISOLIDA) <i>Atamirzayeva E., Safarboyeva U</i>	580
129	CHET TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING O'RNI. <i>Madmusayev J., Abdujabborova M</i>	584
130	INGLIZ TILI O'QITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANIS <i>Hamidjonova J</i>	587
131	SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY FOR IMPROVING STUDENTS' ENGLISH WRITING SKILLS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION <i>Muydinov M</i>	590
132	PRAGMATIC FEATURES OF SPEECH ACTS IN UZBEK AND ENGLISH: AN INTERCULTURAL PERSPECTIVE FROM UZBEKISTAN <i>Khushnazarova G</i>	600
133	1-4-SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA O'YINLI METODLARNING KOMMUNIKATIV SAMARADORLIGI ("GUESS WHAT!" DARSLIGI MISOLIDA) <i>Usmonova N</i>	606
134	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TARBIYASIDA ERTAKLARNING AHAMIYATI <i>Xoshimova D</i>	611
135	7-8 SINF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH MUAMOSINING PEDAGOGIK, SPIXOLOGIK VA METODIK ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI <i>Mamadjonova N</i>	614
136	МОТИВАЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР ОБУЧЕНИЯ ЯЗЫКАМ <i>Юсуфжанова Г</i>	620
137	BO'LAJAK ONA TILI O'QITUVCHILARINING NUTQIY MALAKASINI MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Altibayeva M</i>	624



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

138	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI INGLIZ QO'SHIQLARI ORQALI O'RGATISH <i>Abdurasulova G</i>	626
139	MADANIYATLARARO MULOQOTDA PARAVERBAL KOMMUNIKATSIYANING MUHIM O'RNI <i>Achilova R</i>	630
140	UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING GRAMMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI <i>Axmedova M</i>	634
141	BADIIY MATNLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING TURLARI <i>Tursunov X</i>	641
142	CHET TILI DARSLARIDA VIDEOMATERIALLARDAN FOYDALANISH <i>Boqiyeva Z</i>	648
143	CHET TILI SIFATIDA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA YOZMA KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI <i>Dauletova D</i>	651
144	O'YIN ORQALI O'QISHNI RIVOJLANTIRISH: AUTENTIK YONDASHUV <i>Mirzojonova D</i>	658
145	TEXNIK YO'NALISH TALABALARIGA INGLIZ TILI DARSLARIDA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA KOD-SVICHING FENOMENINING ROLI <i>Xodjayeva G</i>	663
146	TALABALARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA OG'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI <i>Tillaboyeva O</i>	667
147	INTERACTIVE METHODS INTEGRATED WITH DIGITAL ENVIRONMENTS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING <i>Ismoiljonov Sh</i>	674
148	TIL O'RGANISHNING AHAMIYATI VA ZAMONAVIY METODLARI <i>Jaloldinov I., Yigitaliyeva M</i>	678



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

149	INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O‘QITISH <i>Jo‘raboyeva T</i>	683
150	LERNEN LEICHTER MACHEN <i>Гилязиева Н</i>	687
151	RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA CHET TILI O‘QITISH: SUN‘IY INTELLEKTNING LINGVODIDAKTIK POTENSIALI <i>Mirvaliyev F</i>	690
152	INGLIZ TILIDA LEKSIK BIRLIKLARNING AHAMIYATI VA ULARNING TIL O‘RGANISH JARAYONIDAGI ROLI <i>Murodova O</i>	695
153	CHET TILLARNI O‘QITISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI <i>Soliyev B</i>	699
154	GAMIFICATION IN LANGUAGE LEARNING <i>Khoshimjonova S., Tursunova M</i>	703
155	GAMIFICATION-BASED LEARNING SYSTEMS IN FOLKTALE INSTRUCTION AS A TOOL FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE <i>Maxsudaliyeva R</i>	709
156	ZAMONAVIY CHET TILI O‘QITISHDA SUN‘IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING LINGVODIDAKTIK AHAMIYATI <i>Mirvaliyev F</i>	713
157	CHET TILLARINI KICHIK YOSHDA O‘QITISH: KAMCHILIKLAR VA YUTUQLAR <i>Mirzamahmudova S</i>	717
158	NEMIS TILINI O‘QITISHDA WEB-KVEST TEXNOLOGIYASINING MADANIYATLARARO YO‘NALTIRILGAN DIDAKTIK IMKONIYATLARI <i>Turaeva K</i>	720
159	NATIONAL METHODOLOGICAL APPROACHES TO DEVELOPING ARGUMENTATIVE WRITING IN ENGLISH IN OUR COUNTRY <i>Alisherova M</i>	725



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

160	NEMIS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISHDA TINGLAB TUSHUNISHNING DIDAKTIK ASOSLARI VA PROGRESSIYA TAMOYILLARI <i>Saidova M</i>	729
161	TALABALARGA FRANSUZ TILINI O‘QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO ‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI <i>Usmanova N</i>	732
162	AMALIY MASHG‘ULOTLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI <i>Shodiyev R</i>	737
163	IMPROVING THE EFFICIENCY OF LANGUAGE TEACHING AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES <i>Tilepbaeva D</i>	742
164	OMONILLA MADAYEV – FIDOIY PEDAGOG <i>Mamadaliyeva M</i>	746
165	THE SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS <i>Erkulova F</i>	749
166	THE ROLE OF MOBILE APPLICATIONS IN IMPROVING STUDENTS’ ENGLISH VOCABULARY AT SCHOOLS <i>Tursunaliyev N</i>	759
167	TRANSLATION IN EDUCATION: FUNCTIONS AND IMPACT <i>Yusupova N</i>	764
168	USING ROLE PLAY IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO VERY YOUNG LEARNERS <i>Rasulov E</i>	767
169	BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING O‘QISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI <i>Soliyev U</i>	770
170	RAQAMLI TA’LIM PLATFORMALARIDAN FOYDALANISH ORQALI BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA REFLEKTIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: AMALIY-ANALITIK TAHLILI <i>Raximova X</i>	775



IS'HOQQON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

171	BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI MATNNI O‘QIB TUSHUNISHGA O‘RGATISHDA NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING MAHALLIY TAJRIBASI <i>Xolboyeva N</i>	784
172	NEYROPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MATNNI O‘QIB TUSHUNISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI <i>Xolboyeva N</i>	788
173	ТАЛАБАЛАРГА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА РУС ТИЛИНИ КОММУНИКАТИВ ЁНДАШУВ АСОСИДА ЎРГАТИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ <i>Йўлдошев М</i>	792
174	DEVELOPING REFLECTIVE COMPETENCE AS A MECHANISM FOR BRIDGING THE PROFESSIONAL COMPETENCY GAP IN CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS <i>Mustaeva E</i>	799
VI-SHO‘BA: FALSAFA VA TARIX		
175	MUHOJIR ZIYOLILARNING “YOSH TURKISTON” JURNALIDA ISMOIL GASPIRALI SIYMOSINING YORITILISHI <i>Alijonov M</i>	804
176	THE LITERARY LEGACY OF JIYEN AMANLIQ ULI AND THE SOCIAL LIFE OF THE KARAKALPAKS IN THE 18TH CENTURY <i>Orazimbetova G., Seytjanova L.</i>	808
177	TEXNOLOGIYA INSON ONGINI BEGONALASHTIRUVCHI OMIL SIFATIDA (RAY BREDBERRINING “FAHRENHEIT 451” VA AYZEK AZIMOVNING “I, ROBOT” ASARLARI MISOLIDA) <i>Imomaliyeva M</i>	813
178	XIX ASRDA USMONLI IMPERIYASI VA GERMANIYANING HARBIY TAYYORGARLIGI VA TASHKILY ALOQALARI <i>Raximova I</i>	816



IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
“ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA TILSHUNOSLIKNING
DOLZARB MUAMMOLARI”

179	XITOIY MADANIYATIDA QORA RANGNING O‘ZIGA XOSLIGI <i>Ma Cuiling, Quliyeva D</i>	822
180	SHARQ MASHSHOIYLLIGIDA AQL VA JISM MUNOSABATINING METAFIZIK TAHLILI <i>Axatova D</i>	825